

XORAZM ARXEEOLOGIYA-ETNOGRAFIYA EKSPEDITSIYASINING QORAQALPOQLAR ETNOGRAFIYASINI O'RGANISHI

A.H.Hakimova

Buxoro Davlat Universiteti

Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasи

Etnografiya, etnologiya, antropologiya ta'lif yo'naliishi 1-bosqich magistranti.

Elektron manzil: hakimova9197@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada T.A.Jdanko boshchiligidagi rus elshunos olimlarining Xorazm vohasining tarixiy-madaniy, etnografik jihatlari tahlil qilingan ilmiy ishlari xususida so'z boradi. Xususan, olimaning qoraqalpoqlar turmushi, madaniyati, etnogenezi, jamoa-urug'doshlik tuzumi xususidagi tadqiqotlari manbalar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ekspeditsiya, qoraqalpoq, o'tov, madaniyat, kilka, jegde, kiymeshek, sauke, libos.

Abstract. This article explain about the scientific work of Russian philologists under the leadership of T.A.Zhanko, which analyzed the historical, cultural and ethnographic aspects of the Khorezm oasis. Particularly, the scientist's research on the life, culture, ethnogenesis, community-kinship system of the Karakalpaks is covered based on the sources.

Keywords: expedition, Karakalpak, camp, culture, kilka, jegde, kiymeshek, clothes.

Xorazm vohasi tarixi jahon tarixiy jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etgan, shuning uchun bu yerga turli mamlakat tadqiqotchilarining qiziqishi yuqori bo'lgan. Amudaryo va Sirdaryoning etaklaridagi aholining joylashishi, turli etnoslar, ko'chmanchi, yarim ko'chmanchi xalqlarning ijtimoiy hayotini tadqiq etish etnograflarga katta qiziqish uyg'otgan. Shunday etnik birliklardan biri qoraqalpoqlar bo'lib, ular O'rta Osiyo xalqlari madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatgan. N.Baskakov, A.Morozova, S.Malov singari olimlar Qoraqalpog'iston etnografiyasini o'rganish asnosida qoraqalpoqlarning tarixi, madaniyati, urf-odat, an'analalariga oid qimmatli materiallarni to'plab, tartibga solish, tahlil qilish va yagona qoraqalpoq orfografiyasini belgilash borasida katta hajmdagi ishlarni bajarishdi.¹

¹ Doniyorov.A.X."Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi O'zbekiston etnografiya fanida".T.2007.-B 58

Dastlab qoraqalpoq atamasi haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, S.P.Tolstov fikriga ko‘ra, birinchi bo‘lib qipchoqlar, sharqlik pecheneglarni bosh kiyimlariga qarab, “qoraqalpoq” deb ataganlar. Binobarin, qoraqalpoqlar o‘zlarining hozirgi nomlarini XI asrdayoq tug‘ilib o‘sgan yurtlari – Orol va Amudaryo sohillarida olganlar.²

Qoraqalpoq etnografik tadqiqot ishlari 1945-yildan boshlangan bo‘lib, barcha mavsumiy o‘n besh dala ekspeditsiyada guruhni T.Jdanko boshqargan va yillar davomida xodimlar tarkibi o‘zgarib turgan. Rus mutaxassislaridan N.P.Lobacheva, B.V.Andrianov, L.S.Tolstova hamda Qoraqalpog‘iston ilmiy muassasa xodimlari R.K.Kosbergenov, S.K.Kamalov, U.X.Shelekonov singari xodimlar faoliyat yuritishgan.

Sayyor guruh xodimlari qoraqalpoqlar yashash joylarini tekshirib, o‘troq aholi va baliqchilar turar-joylarini taqqoslab o‘rganishgan. Qoraqalpoqlar moddiy-madaniyati haqidagi kuzatishlar, ayniqsa turar-joylari cho‘l hududlaridagi yarim ko‘chmanchi va yarim o‘troq xalqlar tipik birikmasini aks ettiradi.³

Qoraqalpoqlar qadimi o‘tovlari o‘rniga, sug‘orish tarmoqlari bilan bir qatorda dumaloq shakldagi o‘tovlar o‘rganildi. O‘tov qishda qamish yoki tuproq to‘silalar bilan qoplangan, ba’zi o‘tovlar ichida kichik loydan tayyorlangan kulbalar bo‘lib, ular maishiy maqsadlarda omborxona vazifasini bajargan. O‘tovlar Amudaryo sohilining shimoliy qismida keng tarqalgan bo‘lib, unda asosan baliqchilik xo‘jaligi bilan shug‘ullanuvchi aholi yashagan. T.Jdanko boshchiligidagi etnografik guruh boshlagan o‘tovlarni o‘rganish faoliyatini 1970-yillarda X.Yesbergenov davom ettirirgan va ushbu izlanishlar Qoraqalpoq o‘tovlari haqida kinofilm yaratilishi uchun asos bo‘lib xizmat qilgan.

Har qanday xalqning kiyimi bu moddiy madaniyat va etniklikning yorqin ko‘rsatkichidir. Libos bezaklaridagi bezaklardagi qadimi elementlar etnogenez muammolarini o‘rganish uchun vosita vazifasini bajaradi. Kiyim-kechaklar xalq xi’jaligining o‘ziga xos xususiyatlari, oilaviy hayotning ba’zi jihatlari va tabiiy sharoitlarni aks ettiradi. O‘tmishda kiyim-kechaklar ayniqsa, bosh kiyimlar shaxsning oiladagi yoki jamiyatdagi mavqeい, yoshiga qarab belgilangan. Zamonaviy milliy libosda saqlangan qadimi bezak elementlari – xalqning etnik va madaniy tarixini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Qoraqalpoqlar milliy liboslaridagi ko‘plab elementlar arxeologlarning ham qiziqishini uyg‘otib, xalq san’ati va moddiy madaniyatining ayrim xususiyatlarini aniqlashga turtki bo‘lgan. Ekspeditsiya xodimi X.Yesbergenov qoraqalpoqlar kiyim-kechaklarini tadqiq qilishga katta e’tibor qaratgan. U o‘zining dala materiallarini muzey kolleksiyalari bilan birlashtirgan,

² Doniyorov X, Bo’riyev.O.B, Ashirov.A.A “Markaziy Osyo xalqlari etnologiyasi. –T.”Yangi nashr”:2011. –B.116

³ Жданко Т.А Этнографические исследования и этнографы Хорезмской экспедиции //ЭО, № 1.-1997.-С.76

natijada qoraqalpoqlar kiyim-kechaklari haqida o‘zining tadqiqot ishini e’lon qilgan. Kuzatishlar natijasida ayollar ko‘k ko‘ylagi hashamdar bezatilganligi, jegde (qalpoq), ayollar bosh kiyimlari – kiymeshek, saukelar etnografik tahlil qilingan.

Qoraqalpoqlar qadimiylar kiyim-kechaklarning ko‘p qismi oilaviy meros sifatida kam saqlanib qolning, ularning tashqi ko‘rinishini mahalliy ma’lumotlar asosida tiklash mumkin. Xususan, teridan tikilgan qadimiylardan o‘tmishda qoraqalpoqlar kiygan kilka bo‘lib, u asosan echki terisidan tikilib, ichida jun bilan qo‘y terisi bilan qoplangan va podachilarining ish kiyimi sanalgan.⁴

Qoraqalpoq etnografik guruhi tominidan to‘plangan etnografik ma’lumotlar tarixchi, etnograflarning asarlarini sezilarli darajada boyitgan. Xodimlarning yozib olgan dala ma’lumotlariga ko‘ra, ayrim joylarda qabila guruhlari ixcham joylashgan bo‘lib, bu 1940-yilda tuzilgan etnik xaritada o‘z aksini topgan. Xalqning ijtimoiy hayotida dehqonchilik ta’limoti va marosimlarda suv chaqirishda ko‘plab milliy urf-odat va an’analarning izlari saqlanib qolgan, masalan, turli urug‘ ovullari o‘rtasida bayramlarda ot o‘yinlari va bellashuvlar o‘tkazilgan.

Xulosa. ekspeditsiyada to‘plangan dala materiallari hozirgi kunda amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, tarixiy-etnografik ma’lumotlarning ulkan xazinasini o‘zida jamlagan. Qoraqalpoqlar tarixiga bag‘ishlangan asarlar va monografiyalarda ularning xo‘jaligi, turmush tarzi, an’ana, urf-odatlari, amaliy san’ati, kiyim-kechaklari atroflicha tahlil qilindi. Madaniyat va ijtimoiy hayotning barcha jihatlari qoraqalpoq xalqi etnomadaniy qiyofasiga ta’sir ko‘rsatib, ularning asrlar davomida geografik muhit, tashqi ta’sir va boshqa omillar natijasida o‘zgarib, takomillashib kelganidan dalolat beradi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Толстов С. П. (1948). По следам древнекорезмийской цивилизации. Москва
2. Курбанова З. И. (2013) Этнографические отряды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. Приаралье на Перекрестке культур Самарканда.
3. Дониеров.А. (2007) Хоразм археология-этнография экспедицияси Узбекистон этнография фанида. Тошкент.
4. Жданко.Т.А (1980) Этнография каракалпаков.XIX-начало XX века. Тошкент.
5. Doniyorov.X, Bo‘riyev.O.B, Ashirov.A.A (2011) “Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasi. ”Yangi nashr” 2011.
6. www.ziyonet.uz

⁴ Жданко Т.А Этнография каракалпаков.XIX- начало XX века. -Т. :Фан,1980. –C.64.